

ARAB MATBUOTIDAGI SIYOSIY VA DIPLOMATIK UNVONLARNING STILISTIK AHAMIYATI

*Shamsuddin Fayziyev,
Oriental universiteti, Tillar-1 kafedrası o‘qituvchi-stajyori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab matbuotida rasmiy shaxslar uchun ishlatiladigan unvonlarning stilistik va diplomatik funksiyalari tahlil qilinadi. “صاحب” (His Highness), “السمو” (His Excellency), “معالى” (The Honorable), “دولة” (The Prime Minister), and “جلالة” (His Majesty) kabi unvonlarning kontekstual ishlatilishi, ularning matn uslubi va protokol normalaridagi o‘rni aniq misollar asosida yoritilgan. Unvonlarning matn janri, siyosiy ohang va ijtimoiy konnotatsiyani shakllantirishdagi roli chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, arab jurnalistikasida rasmiy unvonlar matnning rasmiylik darajasi va diplomatik noziklikni belgilovchi muhim vosita sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: arab matbuoti, rasmiy unvonlar, stilistik tahlil, diplomatik protokol, siyosiy ohang, jurnalistika uslubi.

Abstract: This article analyzes the stylistic and diplomatic functions of honorific titles used for officials in the Arab press. The contextual usage of titles such as “صاحب” (His Highness), “السمو” (His Excellency), “معالى” (The Honorable), “دولة” (The Prime Minister), and “جلالة” (His Majesty) is examined through concrete examples, highlighting their role in text style and adherence to protocol norms. The study provides an in-depth analysis of how these titles contribute to shaping the textual genre, political tone, and social connotation. The findings indicate that in Arab journalism, official titles serve as key tools for establishing the level of formality and diplomatic sensitivity of the text.

Keywords: arab press, official titles, stylistic analysis, diplomatic protocol, political tone, journalistic style.

Arab matbuoti o‘zining rasmiy, muayyan protokol va uslub qoidalariga asoslangan yozish malakasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, siyosiy, diplomatik va davlat darajasidagi xabarlarda rasmiy shaxslarni tilga olishda foydalaniladigan unvonlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu unvonlar faqat shaxsiy maqomni ifodalab qolmay, balki matnning uslubiy, ijtimoiy va hatto siyosiy rang-barangligini ham belgilaydi. Hayyam Ibrohim أبحاث في لغة الإعلام (Matbuot tiliga oid tadqiqotlar) nomli kitobida ta’kidlaganidek: “Jurnalistlar tomonidan qo‘llaniladigan til, ayniqsa, siyosiy va diplomatik xabarlar yozishda aniq, qisqa va ta’sirli bo‘lishi kerak. Bu uslubiy yondashuv arab gazetalaridagi xabarlarning stilistik tahlilida muhim rol o‘ynaydi” [Hayyam Ibrohim, 2012:67]. Quyida ushbu unvonlarning asosiy turlari, ularning ishlatilish konteksti, farqlari va stilistik jihatlari tahlil qilinadi.

1. صاحب السمو – “Janobi oliylari” (Sahib as-Sumuv). Bu unvon ko‘pincha malika a’zolari, valiahd shahzodalar yoki hukmron oilalarning yuqori martabali a’zolariga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar yoki Quvayt kabi monarxik tuzum hukmron bo‘lgan mamlakatlarda “Janobi Oliylari” maqomi shaxsning nafaqat ijtimoiy maqomini, balki siyosiy va ramziy darajasini ham bildiradi. Masalan,

2023-yil 18-iyul kuni Birlashgan Arab Amirliklarining “al-Bayan” gazetasida chop etilgan xabarda bunday deyiladi: استقبال صاحب السمو الشيخ محمد بن زايد رئيس الدولة وفدًا من رجال الأعمال اليابانيين – الأعمال اليابانيين “Janobi oliylari Shayx Muhammad bin Zoyid, davlat rahbari, Yaponiya ishbilarmonlari delegatsiyasini qabul qildi” [al-Bayan gazetasi, 2023:7-son]. Bu yerda “صاحب السمو” (Janobi oliylari) iborasi matnga izzat-ikrom, hurmat va rasmiylik ohangini qo‘shadi. Uning ishlatilishi – muomala madaniyatining bir qismidir va arab matbuotida juda keng tarqalgan.

2. فخامة – “Janobi oliylari” yoki “Janobi muhtaram” (Faxomat). Bu unvon prezidentlarga nisbatan ishlatiladi va yuksak rasmiy maqomni bildiradi. U faqat prezidentlarga xos unvondir. Masalan, Tunis, Misr, Iroq, Suriya kabi respublika tuzumidagi davlatlarda prezident shaxsiga “فخامة الرئيس” deb murojaat qilinadi. Masalan, أعرب فخامة الرئيس عبد المجيد تبون عن شكره وتقديره للدعم الصيني المستمر “Janobi Oliylari Prezident Abdulmajid Tebbun Xitoyning doimiy yordami uchun minnatdorlik va ehtirom bildirdi”. Ushbu bayonot Prezident Tebbun tomonidan Xitoy bilan ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash doirasida bildirilgan. Bu unvonning ishlatilishi o‘z ichiga diplomatik hurmat, davlat protokoliga rioya va siyosiy ohangni qamrab oladi.

3. معالي – «Janob» yoki «Muhtaram» (Ma’aliy). “Ma’aliy” unvoni odatda vazirlarga, ayrim yuqori lavozimli amaldorlarga, masalan, tashqi ishlar vaziri, iqtisod vaziri yoki ichki ishlar vaziriga nisbatan ishlatiladi. Bu unvon sohibiga nisbatan baland maqomda muomala qilinayotganini bildiradi. Jumladan, «Hurmatli tashqi ishlar vaziri fransiyalik hamkasbi bilan o‘zaro hamkorlik yo‘llarini muhokama qilish uchun uchrashdi». Masalan, 2024-yil 3-dekabr kuni Bahrayn tashqi ishlar vaziri Abdulatif bin Roshid az-Zayyani Qohirada fransiyalik hamkasbi Jan Noel Barro bilan uchrashuv o‘tkazgani haqida الجريدة اليومية الأولى في البحرين (Bahraynning birinchi kunlik jurnali) shunday deydi: معالي وزير الخارجية بنظيره الفرنسي لبحث سبل التعاون المشترك التقى – “Uchrashuvda ikki davlat o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik aloqalari va ularni rivojlantirish yo‘llari muhokama qilindi”. Bu kontekstda “معالي” unvoni rasmiy protokolning muhim qismidir va matnni og‘ir, rasmiy uslubda bayon etishda xizmat qiladi.

4. دولة – “Janobi Vazirlar Mahkamasi raisi” (Davla). “Davlat” unvoni, ya’ni “دولة” degan ibora asosan bosh vazirlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, Livan, Falastin, Iordaniya, Marokash kabi davlatlarda bosh vazir rasmiy maqomida “Davlat ar-Rais” deb ataladi. Jumladan, 2024-yil 3-noyabr kuni «Lebanon24» nashrida xabarda bunday deyiladi: استقبال دولة رئيس الوزراء نجيب ميقاتي وفدًا دوليًا لمناقشة الأوضاع الاقتصادية – “Janobi Bosh vazir Najib Miqoti xalqaro delegatsiyani qabul qildi va ular bilan iqtisodiy vaziyatni muhokama qildi”. Bu unvon prezident unvonidan farqli ravishda boshqaruvning ijroiyy tarmog‘idagi yuqori lavozimni bildiradi.

5. سمو الأمير – “Janob Amir” (Sumuv al-Amir). “Amir” unvoni ko‘plab arab davlatlarida ishlatiladi. U monarxik yoki qabila boshliqlariga, ayrim hollarda esa harbiy yoki diniy maqomdagi shaxslarga ham nisbatan ishlatiladi. Qatarda, Quvaytda, Saudiya Arabistonida va BAAda ushbu unvon keng qo‘llaniladi. Masalan, “al-Jazira” gazetasi 2024-yil 14-noyabr kuni Anqarada bo‘lib o‘tgan uchrashuv haqida bunday deydi: أجرى سمو الأمير تميم بن حمد آل ثاني محادثات مع الرئيس التركي في أنقرة – “Janobi Amir Tamim bin Hamad Ol Soniy Anqarada Turkiya Prezidenti bilan muzokaralar o‘tkazdi”

[al-Jazira, 2024:4/2-soni]. Bu unvon matnga muayyan siyosiy va ijtimoiy ramziy tus beradi, ayniqsa davlat boshlig'i bo'lgan amirlarga nisbatan.

6. **جلالة** – “Janobi Oliylari” (Jalala). Bu unvon qirollik maqomini bildiradi va asosan Marokash, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Bahrayn kabi qirollik tuzumiga ega davlatlardagi shohlar uchun ishlatiladi. “جلالة الملك” degan ibora shohning eng rasmiy va yuksak maqomini ifodalaydi. Jumladan 2024-yil 24-sentabr kuni Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 79-sessiyasida Iordaniya Qirol Abdulloh II nutq so'zlagani haqida «Jaridat al-g'od» (جريدة الغد) gazetasi bunday xabar beradi: «ألقى جلالة الملك عبد الله الثاني خطاباً أمام الجمعية العامة للأمم المتحدة» [Jaridat al-g'od gazetasi, 2024:7-son]. Bu yerda “جلالة” unvoni matnga jiddiy, protokolga xos rasmiylikni olib kiradi.

Shuni ta'kidlash joizki, arab tilida unvonlarning o'ziga xos semantik nozikliklari mavjud. Har bir unvon shaxsning siyosiy maqomini emas, balki ijtimoiy maqomi, tarixiy an'ana va rasmiy yozuv kontekstida egallagan o'rnini aks ettiradi [Muhammad Anas, 2017:43]. Masalan, “فخامة” – prezident uchun, “معالي” – vazirlar uchun, “صاحب السمو” – shahzoda yoki malikiy shaxslar uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning o'zaro almashib ishlatilishi uslubiy xatolik sanaladi. Bundan tashqari, har bir unvon matndagi uslubni belgilaydi. Masalan, “صاحب السمو” bilan boshlangan matn odatda rasmiy, diplomatik kontekstda bo'lib, unda emotsional neytrallik va hurmat uyg'otuvchi til uslubi ustuvor bo'ladi. Aksincha, “معالي” yoki “دولة” unvonlari ishlatilgan matnlar hukumat faoliyati, siyosiy uchrashuvlar, iqtisodiy forumlar haqidagi xabarlarda uchraydi.

Olib borilgan tadqiqotdan unvonlar arab matbuotida matnning janri va ohangini belgilovchi asosiy vositalardan biri ekani ma'lum bo'ldi. Ularsiz matn soddalashadi, rasmiylik darajasi pasayadi, hattoki ayrim hollarda diplomatik noziklik buzilishi mumkin. Shu sababli, Arab jurnalistikasi uslubida bu unvonlar tahririyat siyosatining muhim qismiga aylangan.

Arab matbuoti o'zining stilistik jihatdan mukammal tuzilmalari bilan ajralib turadi. Rasmiy maqomdagi shaxsni to'g'ri izzat bilan tilga olish – bu nafaqat madaniy qadriyat, balki diplomatik ehtiyotkorlik mezonidir. Aynan shuning uchun unvonlarning har biri o'zining konnotativ ma'nosi bilan arab jurnalistikasida yuksak funksional yuklamaga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doktor Hayyam Fahmiy Ibrohim. (2012). *Abhas fi lug'a al-i'lam*. Bag'dod: Dar al-Farohidiy.
2. Doktor Abdussalom Mussadiy. (1982). *Al-uslub va al-uslubiyya*. Qohira: al-Dar al-Arobiyya al-Kitab.
3. Muhammad Anas Sarminiyy. (2017). *Al-lug'a al-arobiyya al-fus'ha fi i'lam al-arobiy al-mu'asir*. Damashq: Dar al-Muqtabas.
4. Al-Jazirah.com
5. Alghad.com
6. www.albayan.ae